



POET'S LITERARY VIEWS IN "BOBURNOMA"

Mamatkarimova Oyshirin

Samarkand State Pedagogical Institute Faculty of
Uzbek Language and Literature, Master's student

Abstract: This article explores the place of Zahiriddin Muhammad Babur's "Baburnama" in literary criticism, his views on prose and poetry, and the history of Alisher Navoiy's works.

Keywords: prose, poetry, Tengri, flora, fauna, source, victory

Annotatsiya: Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarining adabiyotshunoslikda tutgan o'rnini hamda nasr va nazmga nisbatan qarashlari aks etgan. Alisher Navoiyning yaratgan asarlari tarixi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: nasr, nazm, Tengri, flora, fauna, manba, g'alaba

"Boburnoma" Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan yozilgan o'ziga xos avtobiografik asar bo'lib, nafaqat tarixiy manba, balki yuksak badiiy qimmatga ega adabiy asardir. Bu nodir asar XVI asr boshlaridagi Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Hindistonning ijtimoiy-siyosiy hayoti, geografiyasi, flora va faunasi, xalqlarning urf-odatlarini haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. "Boburnoma" o'z davrining voqealari, hukmdorlar, siyosiy jarayonlar, harbiy yurishlar va diplomatiya haqida birinchi qo'ldan xabar beruvchi ishonchli manbadir. Bobur o'z asarida xolislik bilan voqealarni bayon etadi, g'alabalari bilan birga mag'lubiyatlarini ham yashirmaydi. Bu esa asarning tarixiy qiymatini yanada oshiradi. Unda keltirilgan joy nomlari, shaxslar, hodisalar ko'plab boshqa tarixiy manbalar bilan qiyoslanib, o'rganiladi. "Boburnoma" o'zbek nasrining eng yorqin namunalaridan biridir. Boburning tili sodda, ravon va jozibali bo'lib, u voqealarni jonli tasvirlash mahoratiga ega. Asarda she'riy parchalar, hikmatli so'zlar, maqollar ham keng qo'llanilgan bo'lib, bu uning badiiy saviyasini yuksaltiradi. Bobur tabiat manzaralarini, odamlarning xarakterlarini, urf-odatlarini mahorat bilan





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

tasvirlaydi. Uning uslubi keyingi avlod adabiyotiga ham katta ta'sir ko'rsatgan. "Boburnoma" Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asarining izchil davomidek korinadi. Sababi mazkur asarga kiritilgan shoirlar to'g'risida (Abdurahmon Jomiy, Muhammad Solih, Shayxim Suhayliy, Sayfiy Buxoriy, Kamoliddin Binoiy, Badriddin Hiloliy, Hotifiy va shu kabilar) ularning "Majolis un nafa'is" yaratilishidan so'nggi davrdagi hayoti va ijodiga doir yangi ma'lumotlar beradi., Bobur biror ijodkor haqida fikr yuritish jarayonida, eng avvalo, uning badiiy ijod sohasidagi o'ziga xos o'rni va mavqei hamda yutuqlari, shu jumladan, biror bir asaridagi nuqsonli jihat bo'lsa, bunga ham e'tibor qaratadi. Bu bilan u o'zining adabiy muhitdan yaqindan xabardor bo'lganligini namoyish qila olgan, deyish mumkin. Bundan tashqari Alisher Navoiyning o'zi haqida ham qimmatli ma'lumotlar berilgan edi. Jumladan, "Alisherbek naziri yo'q kishi edi. Turkiy til bila to she'r aytibdur, hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon emas. Olti masnaviy kitob nazm qilibdur, beshi "Xamsa" javobida, yana bir "Mantiq ut-tayr" vaznida "Lison ut-tayr" otliq. To'rt g'azaliyot devoni tartib qilibdur: "G'aroyib us-sig'ar", "Navodir ush-shabob", "Badoyi ul-vasat", "Favoyid ul-kibar" otliq. Yaxshi ruboiyoti ham bor". Ushbu jumlar orqali Navoiyni o'rganishda "Boburnoma" asosiy tadqiqot ob'ektlaridan biri ekanligini ko'ramiz. Qolaversa, Alisher Navoiyning hunar egalarga ustozlik qilganini va Navoiychalik hech qaysi murabbiy ta'lim beraolmagani haqida ham ma'lumotlar talaygina.

Asarda nazmga ham alohida e'tibor berilib keltirilgan falsafiy mavzudagi she'riy parchalarda azaliy va abadiy qonuniyatlar – ajdodlar turmush tajribasidan kelib chiqqan xulosalar haqida fikr yuritiladi. Insonni har bir qadamini o'ylab bosishga, hayotida duch kelgan muammolarni hal qilishda yetti o'lchab bir kesishga undaydi:

Zamini sho'ra sunbul bar nayorad,
Dar o' tuxmi amal zoyi' magardon.
Nako'n bo badon kardan chunonast,





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Ki band kardan bajoi nekmardon. [Boburnoma, 2002:149] Mazmuni: Sho‘rlagan zaminda bitmaydi sunbul, Unga urug‘ sepib, zoe qilmagil. Yomonga shu kabi qilsang gar amal, Yaxshiga yomonlik qilish bilan teng.

Asarda so‘z qudratiga ham alohida e‘tibor qaratilgan. “Xat bitimoqdin va bizni tilamoqdin munkir bo‘lub, rustoiyona va durusht javoblar yibordilar. Ul rustoiliklaridin biri bu edikim, Shohbek manga bitilgan xatning orqasida beklar beklarga, balki ulug‘roq martabaliq beklar kichikrak chargalik beklarga muhr bosar yerda qog‘ozning o‘rtasida muhr bosib yiboribtur. Agar mundoq rustoiyona harakatlar qilmasa erdi va bu nav‘ durusht javoblar yibormasa edi, ish munga yetmas edi. Nechukkim: Siteza ba joyi rasonad suxan, Ki vayron kunad xonadoni ko‘han”. [Boburnoma, 2002:156] Tabdili: “Xat yozganlari va bizni chorlaganlaridan Muqim va Shohbek mutlaqo tonib, betamizlarcha qo‘pol javoblar yuborishdi. Betamizligining biri shu ediki, Shohbekning menga bitilgan xati orqasida beklar beklarga, aniqrog‘i ulug‘roq martabalik beklar kichikroq mansablik beklarga muhr bosadigan joyda qog‘oz o‘rtasiga muhr bosib yuboribdi. Agar bunday g‘aliz harakatlar qilmasa va bunday qo‘pol javoblar yubormasa edi, ish bunga borib yetmasdi. Negakim: [Boburnoma, 2008: 157-158]

Zug‘um-la joyida aytilgan kalom, Ko‘hna xonadonni aylagay vayron”. Falsafiy mazmundagi she‘riy parchalar turli falsafiy, axloqiy g‘oyalarni o‘zida aks ettiradi va muallif ulardan muayyan voqea-hodisani xulosalash sifatida foydalangan. Jumladan: “Kishimizning ozig‘a boqmay, Tengriga tavakkul qilib, naqoralarni qoqib, g‘anim sori boqib yuruduk. Ko‘p-u ozg‘a Tengridur berguchi, Bu dargohda yo‘qtur kishining kuchi. [Boburnoma, 2002:158] Bormoqqa ne maskan muyassar, Turmoqqa ne davlat muqarrar.

Ushbu bayt «Boburnoma»da dastlab uchraydigan bayt. Masnaviy shaklidagi mazkur fard asarning 1498-1499-yil voqealari bobida berilgan. Demak, bu fardni Bobur mirzo o‘sha kezdagi o‘z hasbi holidan kelib chiqib aytgan. Avvalo, fard o‘zining mazmuniy hayotiyliги va realligi bilan xarakterlansa, ikkinchidan, shoirning qay





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

chog‘dan she‘r mashq qila boshlaganini aniqlashga ham imkon beradi. Binobarin, Bobur mirzo o‘n besh yoshidan baytlar ayta boshlagan.

Bobur mirzo g‘azallarini o‘qigan har bir odam ularni birinchi navbatda an‘anaviy ishqiy g‘azallar sifatida anglaydi va shunday qabul qiladi. Lekin professor olim Nuriddin Shukurovning aytganidek: “Boburnoma”da berilgan ma‘lumotlar ayrim g‘azallarning konkret sarguzashtlar, muayyan hodisalar ta‘sirida yozilganligidan, shunga ko‘ra ularning zahirida aniq hayotiy kechinmalar, kuchli ijtimoiy mazmun yashiringanligidan dalolat beradi.”

Asarning 1499-1500 voqealari bobida: “Korhoro ba vaqt boyad just, Kori be vaqt sust boshad, sust” baytini o‘qib, biz Boburining turkiy baytlar bilan bir vaqtda forsiy baytlar ham aytganining shohidi Asarning 1499-1500 voqealari bobida: “Korhoro ba vaqt boyad just, Kori be vaqt sust boshad, sust” baytini o‘qib, biz Boburining turkiy baytlar bilan bir vaqtda forsiy baytlar ham aytganining shohidi bo‘lamiz. Shu bobning o‘zida muallif yozadi: «Bu ikkinchi navbat Samarqandni olg‘onda, Alisherbek tirik edi. Bir navbat menga kitobati ham kelib edi. Men ham bir kitobat yiborib edim. Javob kelguncha, tafriqa va g‘avg‘o bo‘ldi» Bu jumlar ko‘p narsalardan shohidlik beradi va bizga ko‘p narsalarni aytadi. Bu jihatdan, Bobur mirzoning buyuk zamondoshiga nisbatan ixlosu e‘tiqodidan shohidlik bersa, ikkinchidan, bu yozishmalar ustoz bilan shogird munosabatlarining boshlanmasi ham edi. Muallifning maktubidan ustoz qalbida umidvorlik tuyg‘usi uyg‘onib, munosib vorisi borligidan uning ko‘ngli to‘lgandir, ehtimol...

Bobur shu bobda yana forsiygo‘y shoir Binoiyning ruboiysiga javob aytib mushoira qilganini yozadi: «Ul fursatlarda birar-ikkirar bayt aytur edim. Vale g‘azal tugatmaydur edim. Birgina turkiy ruboiy aytib yibordim.

Ruboiy:

Ishlar bori ko‘ngulungdagidek bo‘lg‘usidur,

In‘omu vazifa bori buyrulg‘usidur.





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Ul g'allau muhmalki deb eding, berdim,
Muhmalga bo'yu g'alladin uy to'lg'usidur».

“Boburnoma”ning keng qamrovlilik xususiyatlaridan biri tarixiy voqealar xususan, unda Sulton Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Ismoil Safaviy, Ibrohim Lo'diy, Shoh Tahmosp, Humoyun Mirzo kabi tarixiy shaxslarning yurishlari aks etgan.

Xulosa qilib aytganda, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari biz avlodlarga o'tmish haqida, tarixiy-adabiy qarashlar haqida to'g'ri ma'lumot beruvchi manbadir. Xususan, Navoiy va Husayn Boyqaro haqida, Navoiy yaratgan asarlarning tarixi haqida, Boburning shoh va shoirlik faoliyati haqida ko'plab ma'lumotlarni o'rganishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

- 1.Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: “Sharq”,2002.
- 2.Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Tabdil. – Toshkent: “O'qituvchi”, 2008

